



## GURUHLARDA BO'SH O'ZLASHTIRUVCHI O'QUVCHILARNI IJTIMOYIY- PEDAGOGIK MOSLASHUV

Tolipova Marxabatxon Baxtiyorovna

*Farg'ona ICHSHUI kasb-hunar maktabi Ishlab chiqarish ta'lim ustasi*

**Annotasiya:** *Guruhlarda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni ijtimoiy-pedagogik moslashuv xaqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi, ta'lim tizimi, imkoniyati cheklangan o'quvchilar, ta'lim jarayoni, ta'lim tarbiya, ijtimoiy-pedagogik moslashuv.*

Guruhlarda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni ijtimoiy-pedagogik moslashuv, ularni guruhga integratsiya qilish va ularning qatnashishini rag'batlantirish uchun muhimdir. Bu tushuncha o'quvchilarning guruhda hissiyotlari, fikrlari va talablari qabul qilinishini ta'minlashni anglatadi. Bu masalani hal etish uchun pedagoglar o'quvchilarning hissiyotlarini tushunish, ularning fikrlariga e'tibor berish va ularni qo'llab-quvvatlashni talab etadi. O'quvchilarni guruhlarda integratsiya qilish, ularning bir-birlari bilan aloqalarini rivojlantirish va jamoatda muvaffaqiyatga erishishi uchun xizmat qiladi.

Hozirgi kunda ko'plab davlatlar qatori O'zbekistonda ham imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim va tarbiya olishlari, jismoniy tiklanishlari yoki jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari hamda tibbiy muolajalar olib borishlari uchun keng-ko'lamdagi imkoniyatlar yaratib kelinmoqda va bunday insonlarning haq-huquqlari qonun xujjatlari bilan mustahkamlab qo'yigan va himoya qilinmoqda.

So'nggi yillarda jamiyatimizda ta'limning barcha darajalarida ta'lim inklyuziya amaliyotini joriy etishning barqaror tendentsiyasini namoyish etmoqda. Bu nafaqat nogironligi bo'lgan shaxslarning arzon va sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlash, balki zamonaviy jamiyatning shaxsga va har bir insonning ehtiyojlariga individual namoyishlar va farqlarning barcha xilma-xilligida qiymatli munosabatda bo'lishini talab qilish bilan ham bog'liq.

Imkoniyati cheklangan bolalar jamiyatda o'zlarining shaxsiy ehtiyojlari va ijtimoiy hayot yetishmoqchiliklarini qisman yoki to'liq o'zi mustaqil ta'minlay olishmaydilar. Shuning uchun ham davlatimiz va xukumatimiz tomonidan ularni qo'llab quvvatlash hamda ijtimoiy himoya qilish maqsadida bir qancha qarorlar imzolandi.

Hozirgi vaqtda rivojlanishda o'ziga xosliklari bo'lgan bolalar bilan ishlash tajribasiga ega defektologlar yoki psixologlar bu vazifani tijorat asosida amalga oshirmoqdalar.

Nutqni o'z vaqtida to'g'ri egallash, bolaga atrofni o'rab turgan odamlar bilan erkin muomala qilish imkonini beradi, o'z xulqini boshqarishga yordamlashadi, bola ruhiy faoliyatini rivojlanishiga ko'maklashadi va nihoyat, maktabda ta'lim tarbiya berish jarayonini yengillashtiradi. Imkoniyati cheklangan bolalar o'zlarining sog'lom, tengdoshlariga qaraganda kech tilga kiradilar, birinchi so'zni aytish muddati bolaning uch, ba'zan esa besh yoshgacha kechikadi.



Mamlakatimizda jismonan sog'lom shaxslar singari imkoniti cheklangan shahslarni ham jamiyatning faol shaxsiga aylantirish uchun eng avvalo unga bog'liq bo'lgan muammolarni o'rganib chiqmoq va buning yechimi uchun bir qancha vazifalar belgilab olishimiz lozim bo'ladi.

Imkoniyati cheklangan bolalar musiqa, rassomchilik, tasviriy san'at, kulolchilik, jismoniy tarbiya va sport, kompyuter, tikuvchilik hamda boshqa maktabdan tashqari to'garaklar bilan qamrab olinadi. Shu bilan birga, inklyuziv ta'limda o'qitish usullari takomillashtiriladi hamda ta'lim jarayoniga individuallashtirish tamoyillari bosqichma-bosqich joriy etiladi.

Imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim-tarbiya olishlari

Nogiron - jismoniy, aqliy, psixologik va hissiy faoliyatning izdan chiqishi, shikastlanishi natijasida hayot faoliyatining cheklanishi munosabati bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nogiron deb topilgan va ijtimoiy yordam hamda himoyaga muhtoj bo'lgan shaxs tushuniladi. "Nogiron" atamasi hozirgi kunda eskirib qolgan va qo'pol bo'lgan so'z hisoblanadi. Shuning uchun ham bunday shaxslarga nisbatan "imkoniyati cheklangan insonlar" yoki "nogironligi bo'lgan shaxslar" deb murojaat qilish to'g'ri bo'ladi.

Hozirgi kunda ko'plab davlatlar qatori O'zbekistonda ham imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim va tarbiya olishlari, tibbiy muolajalar olib borishlari uchun imkoniyatlar yaratib kelinmoqda va bunday insonlar va bolalarning haq-huquqlari qonun hujjatlari bilan mustahkamlab qo'yilgan va himoya qilinmoqda. BMT ning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning xalqaro standartlari, shuningdek, "nogiron" so'zi o'rniga "nogironligi bo'lgan shaxs" atamasidan foydalanishni nazarda tutuvchi "Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida" gi Qonun yurtimizda yuqoridagi toifaga mansub shaxslarning huquq va manfaatlarini ifodalashga xizmat qiladi.

Ta'lim dasturlari vajarayonida jismoniy holati yoki rivojlanishdagi o'ziga xosliklardan qat'i nazar, har bir o'quvchining individual ehtiyojlari hisobga olinishi lozim. Biz bolalarni nogironlik alomatlari bo'yicha kamsitishimiz emas, balki ularga olishlari mumkin bo'lgan har narsani berishimiz kerak. Ta'lim dasturini rivojlantirib, qamrovini oshirishni xohlar ekanmiz, «bitta dastur barcha uchun» tamoyilining allaqachon eskirgani va bugungi kun talablariga javob bermasligini tan olishimiz zarur. Buning uchun bolaning o'ziga xosliklaridan kelib chiqqan holda individual ta'lim dasturini shakllantirish lozim. «Inklyuziya ta'lim to'g'risidagi asosiy qonunda maktabgacha ta'limdan boshlab barcha huquqlar mustahkamlangan bo'lsagina rivojlanishi mumkin. Aks holda barcha qonunosti hujjatlari "sandiqda chang bosib yotaveradi". Ota-onalar o'z farzandlarining qiziqishidan kelib chiqqan holda ularni ixtisoslashgan va umumta'lim maktablarida o'qishlarini tanlash hamda umumta'lim maktablarida qonuniy huquqlari bo'lgan maxsus sharoitlar yaratilishini talab qilish imkoniyatiga ega bo'lsalar, o'shandagina haqiqatdan ham yaxshi tomonga o'zgarishlar boshlanadi!»

2030-yilgacha O'zbekiston xalq ta'limi tizmini rivojlantirish konsepsiyasida inklyuziv ta'lim dasturlari yetarlicha rivojlanmagani hamda moslashtirilgan umumta'lim dasturlarini ishlab chiqish, OTM dasturlarida inklyuziv ta'lim bo'yicha o'qituvchilarni maxsus tayyorlash zarurligi qayd etilgan.



Shu munosabat bilan kadrlar taqchilligini hal qilish va inklyuziv ta'limning ajralmas qismi bo'lgan tyutor lavozimini rasman joriy etish maqsadga muvofiq.

Guruhlarda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni ijtimoiy-pedagogik moslashuv jarayoniga yordam berish uchun bir qancha strategiyalar va usullar qo'llanilishi mumkin. Bu usullar o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini orttirish, ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish va ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga qaratilgan.

1. Individual yondashuv: Har bir o'quvchi o'ziga xosdir va ularning ehtiyojlari turlicha bo'lishi mumkin. Shuning uchun, o'qituvchi har bir o'quvchi bilan alohida shug'ullanishga harakat qilishi kerak.

- O'quvchining qiyinchiliklari va kuchli tomonlarini aniqlash uchun diagnostika o'tkazish.

- Har bir o'quvchi uchun individual o'quv rejasini ishlab chiqish va unga moslashish.

2. O'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olish

Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash va ularni o'quv jarayoniga integratsiya qilish.

- O'quvchilarning qiziqishlariga mos keladigan o'yinlar, loyihalar va faoliyatlarni o'quv jarayoniga kiritish.

- Interaktiv o'qitish metodlaridan foydalanish (masalan, rolli o'yinlar, munozaralar, guruhli ishlash).

3. Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish

O'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar o'tkazish.

- O'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lib ishlash orqali ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish.

- O'quvchilarga kommunikatsiya ko'nikmalarini o'rgatish va ularni muntazam mashq qilish.

4. Psixologik qo'llab-quvvatlash: O'quvchilarning psixologik holatini yaxshilash va ularga ruhiy qo'llab-quvvatlash ko'rsatish.

- Maktab yoki ta'lim muassasasidagi psixolog bilan maslahatlashish va zarur bo'lsa, o'quvchini psixolog bilan uchrashishga yo'naltirish.

- O'quvchilarga stress va xavotirni boshqarish usullarini o'rgatish.

5. Ota-onalar bilan hamkorlik: O'quvchilarning o'quv jarayonidagi muvaffaqiyati uchun ota-onalar bilan yaqin hamkorlik qilish.

- Ota-onalar bilan muntazam muloqot qilish va ularni o'quvchilarning rivojlanishi haqida xabardor qilish.

- Ota-onalarga uyda o'quvchilarga qanday yordam berish mumkinligi haqida maslahatlar berish.

6. Motivatsiyani oshirish. O'quvchilarning o'quv jarayoniga bo'lgan motivatsiyasini oshirish.

- O'quvchilarning muvaffaqiyatlarini mukofotlash tizimini joriy etish.



● O'quvchilarning kichik yutuqlarini ham rag'batlantirish va ular uchun maqtoovlar berish.

7. Differensial ta'lim: O'quvchilarning turli o'zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, imkoniyati cheklangan bolalar maktablarida amalga oshirilayotgan ushbu amaliy qadamlar va kerakli zaruriy chora-tadbirlar natijasida ushbu tizimdagi mavjud muammolar o'z yechimini topishi hamda jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalarning ruhiy-psixologik holatlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi o'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. Sh.Mirziyoev. Toshkent. 2017 yil 1-dekabr, PF-5270-son.

2.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'irisida"gi Qonuni / Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997.

3. Nabiyeva, G. A. (2021). IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNING TA'LIM-TARBIYA OLISHLARI. Scientific progress, 7(5).

4. Zoxiriy, P. H. Z. Q. (2021). INKLYUZIV TA'LIMDA NOGIRON BOLLALARNI O'QITISH VA TARBIYALASH MUAMMOLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(1).

5. Mamedov K. D., Pulatova P. M. "Oligofrenopedagogika asoslari". Pedagogika Institutlari defektologiya fakulteti talabalari uchun o'quv qo'llanma. - Toshkent.: "O'qituvchi", 1994.

6. Гаврилушкина С.П. Воспитание и обучения умственно отсталых дошкольников. Москва. Просвещение.1995 г. 6. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

7. [www.norma.uz](http://www.norma.uz). Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limjoriy etiladi.-17.10.2020.